



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 17-fevral

72-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2025-yil 12-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son qarori ijrosi haqida”gi 68-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 12-fevraldagi 68-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 12-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son qarori ijrosi haqida”gi 68-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son qarori bilan:

2025-yilda go‘sht va sut ishlab chiqarish hajmining prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda parranda go‘shti va parranda tuxumi yetishtirish hajmining prognoz o‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2025-yilda hududlarda parrandachilik kooperatsiyasi tizimi asosida aholi bandligini ta‘minlash ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

2025-yilda parranda mahsulotlarini eksport qilishning prognoz ko‘rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq;

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash choralari 5-ilovaga muvofiq;

2025-2027 yillarda veterinariya sohasini takomillashtirish hamda chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirishga doir vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha "Yo‘l xaritasi" 6-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlari hisobidan tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limlarini naslchilik ishi va sun‘iy urug‘lantirishni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika vositalari, shu jumladan, Dyuar idishlari bilan ta‘minlashning prognoz ko‘rsatkichlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda - Veterinariya qo‘mitasi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son qarori 1-4-ilovalarda nazarda tutilgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflarga rozilik berilganligi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Veterinariya qo‘mitasi 2025-2026-yillarda xalqaro donorlardan, shu jumladan, Osiyo taraqqiyot banki va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligidan yaylovlar degradatsiyasining oldini olish va qorako‘lchilik sohasini rivojlantirishga 50 million AQSh dollari miqdorida mablag‘larni jalb qilish choralarini ko‘rishi;

Belgilab qo‘yilishicha:

chorvachilik majmuasi egasi o‘zining garovga qo‘yilgan chorvachilik majmuasining garov ta‘minoti bo‘yicha majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, ushbu chorvachilik majmualarini ularga qarashli yer uchastkasidan foydalanish maqsadini o‘zgartirmagan holda qonunchilikda belgilangan muddatga, yer ijara huquqini esa yer ijarasi shartnomasining qolgan davriga elektron onlayn auksion savdolari orqali yaxlit lot sifatida realizatsiya qilishga ruxsat etilishi. Bunda:

yer uchastkasiga ijara huquqini elektron onlayn auksion savdolariga chiqarishni vakolatli organlar bilan kelishish (xulosa olish) talab etilmasligi;

yer uchastkasiga ijara huquqini elektron onlayn auksion savdolarida realizatsiya qilishdan tushgan mablag‘lar sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq taqsimlanishi;

Soliq qo‘mitasi Veterinariya qo‘mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda Ipakchilik va jun sanoati qo‘mitasiga doimiy foydalanishga berilgan yaylov yer maydonlariga 2020-yildan 2024-yil 31-dekabrga qadar hisoblangan yer solig‘i summasini xatlovdan o‘tkazishi hamda ushbu muddatda ijaraga berilmagan maydonlar uchun hisoblangan yer solig‘i summasini hisobdan chiqarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritishi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyatda 2025-yilda go‘sht va sut ishlab chiqarish hajmining prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda parranda go‘shti va parranda tuxumi yetishtirish hajmining prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2025-yilda parrandachilik kooperatsiyasi tizimi asosida aholi bandligini ta‘minlash ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

Mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limlarini naslchilik ishi va sun‘iy urug‘lantirishni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika vositalari, shu jumladan, Dyuar idishlar bilan ta‘minlashning prognoz ko‘rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq;

Viloyatda 2025-2027-yillarda veterinariya sohasini takomillashtirish hamda chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirishga doir vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

"Mikrokreditbank" ATB Namangan viloyat bo'limi (S.Omonov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (Z.Ikramov), tumanlar hokimliklari bilan birgalikda o'n kun muddatda "Mikrokreditbank" ATB kredit mablag'lari hisobiga kooperatsiya tizimi asosida parrandachilik loyihalarini amalga oshirish tashabbusini ko'rsatgan xonadonlar ro'yxatini shakllantishi;

mazkur qarorni 3-ilovasiga muvofiq ish tashkil etib ijrosini belgilangan muddatlarda ta'minlashi;

Viloyat hokimining o'rinbosari – viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i (A.Xakimov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (A.Egamberdiyev), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Aldullayev), Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (B.Sulaymonov), tumanlar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda 2025-yilda yaylovlarni tiklash hamda ularda sug'orish inshootlarini (quduqlarni) barpo etish dasturini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritishi;

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son qarori 4-bandiga muvofiq:

sug'orish inshootlarini (quduqlarni) muqobil energiya manbalari qurilmalari va suv hisoblagichlari bilan ta'minlash;

sug'orish inshootlari (quduqlar) birlashtirilgan subyektlarning ularni saqlash va oqilona foydalanish borasidagi majburiyatlarini belgilash;

ushbu dasturni moliyalashtirishga Markaziy bankning foydasi hisobidan tegishli mablag'larni yo'naltirish nazarda tutilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i (I.Ergashev), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (N.Toshboyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi (T.Mirzayev), tijorat banklari tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i I.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov